
“Agro Rishton ta’mir servis” MChJning Rishton filialiga 3 ta yangi chiqindi tashish mashinasi topshirildi

* Chiqindi u xoh qattiq, xoh maishiy yoki qurilish chiqindisi bo’lsin, to’plash, tashish, ko’mish yoki utilizatsiya qilish, imkoni bo’lsa, qayta ishlashni talab etadi. “Agro Rishton ta’mir servis” mas’uliyati cheklangan jamiyati zimmasiga ana shunday mas’uliyat yuklangan.

✿ Davlat-xususiy sherikchilik asosida tashkil etilgan korxonaning moddiy-texnik bazasini yaxshilash, xizmat ko’rsatish hajmi va sifatini yanada oshirish maqsadida, bugun MChJning Rishtondagi filiali tasarrufiga 3 ta yangi chiqindi tashish mashinasi topshirildi.

* Tuman hokimi o’rinbosari N. Oripov korxonaga mas’ullari bilan suhbatda, tumanda chiqindi bilan bog’liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish, shu bilan birga, xalqimiz uchun munosib yashash sharoitlarini yaratish, hududlarda sanitariya va ekologik vaziyatni yaxshilash, aholi turmush darajasi va sifatini yanada oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalarga alohida to’xtaldi.

???? - Osiyo taraqqiyot banki tomonidan moliyalashtirilgan lizing asosida korxonamiz uchun jami 10 ta chiqindi tashish mashinasi xarid qilingan bo’lsa, ularning 3 tasini Rishtondagi filialga ajratdik, - deydi “Agro Rishton ta’mir servis” MChJ rahbari Mirzaolim Nurmatov. - Investitsion majburiyatlarimizni to’liq bajarish maqsadida, har biri 800 mln. so’mdan baholangan bunday maxsus tashuv transportlarini sotib olish davom etib, 2023 yil boshida Rishton tumani uchun yana 2 ta chiqindi tashish mashinasi keltiriladi. Natijada, tumanning barcha hududlari to’liq qamrab olinib, xizmat ko’rsatish sifati yanada oshiriladi.

□ Korxonaga hozirda 71 ta mahalla va yuzdan ziyod korxonaga-tashkilotlarga xizmat ko’rsatib kelmoqda.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.

2022-12-20 09:43:25